

SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PHD.26/27.02.2020.T.109.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT ARXITEKTURA – QURILISH UNIVERSITETI

KARSHIYEV SHARIF SHERQULOVICH

QUYOSH KOLLEKTORLARINI BUZILISHDAN HIMOYALASH UCHUN
ENERGIYA TEJAMKOR VA ISHONCHLI O‘ZINI O‘ZI DRENAJ
QILADIGAN GELIOQURILMALAR

05.09.03 – Issiqlik ta’minoti. Ventilyatsiya, konditsionerlash.
Gaz ta’minoti va yoritish

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Samarqand – 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of the of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Karshiyev Sharif Sherqulovich

Quyosh kollektorlarini buzilishdan himoyalash uchun energiya tejamkor va
ishonchli o'zini o'zi drenaj qiladigan gelioqurilmalar..... 03

Каршиев Шариф Шеркулович

Энергосберегающие и надежные самодренируемые гелиоустановки для
защиты солнечных коллекторов от повреждений 21

Karshiyev Sharif Sherqulovich

Energy-efficient and reliable self-draining solar installations for protecting
solar collectors from damage..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 43

SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PHD.26/27.02.2020.T.109.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT ARXITEKTURA – QURILISH UNIVERSITETI

KARSHIYEV SHARIF SHERQULOVICH

QUYOSH KOLLEKTORLARINI BUZILISHDAN HIMOYALASH
UCHUN ENERGIYA TEJAMKOR VA ISHONCHLI O‘ZINI O‘ZI DRENAJ
QILADIGAN GELIOQURILMALAR

05.09.03 – Issiqlik ta’minoti. Ventilyatsiya, konditsionerlash.
Gaz ta’minoti va yoritish

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Samarqand – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/T1259 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdaqu.edu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rashidov Yusuf Karimovich,
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Klichev Shavkat Isakovich,
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Abdullayev Qulmamat Yusupovich,
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi PhD.26/27.02.2020.T.109.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «29» avgust soat 19⁰⁰ da Kichik majlislar zalida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140147, Samarqand sh., Lolazor ko'chasi, 70-uy. Tel.:(+99866) 237-18-47, faks: (+99866) 237-19-53, e-mail: samdaqu@edu.uz.)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 264 raqami bilan ro'yxatga olingan). (140147, Samarkand, ul. Lolazor, 70. Tel.:(+99897) 315-44-50, e-mail: <http://arm.samdaqu.edu.uz>.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «13» avgust kuni tarqatildi.
(2025 yil «13» avgust dagi 9 - raqamli reestr bayonnomasi).



S.M. Boboev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d. professor

R.M. Maxmudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.n., dotsent

E.S. Tulakov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining zaruriyati va dolzarbligi. Jahonda quyosh kollektorlarini qo'llash asosida issiqlik ta'minoti tizimlari keng ko'lamda amaliyotda qo'llanilmoqda. 2023-yilda dunyoda bunday gelioqurilmalarning umumiy maydoni qariyb 800 million m² ga yetdi¹. O'zbekiston keskin kontinental iqlimli mamlakatlar qatoriga kiradi, shuning uchun gelioqurilmalarda issiqlik tashuvchi sifatida suvdan foydalanish quyosh kollektorlarining mexanik shikastlanishiga va ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin, chunki qishda ularda issiqlik tashuvchining muzlashi yoki yozda uning turg'unlik rejimida qaynash xavfi mavjud. Shu sababli, qishi sovuq va yozi issiq bo'lgan mamlakatlarda quyosh energiyasidan foydalanish sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda quyosh kollektorlari va tizimlarini issiqlik tashuvchining muzlashi, to'xtab qolishi, qizib ketishi va qaynashidan himoya qilishning oddiy va ishonchli usullarini yaratish hamda ularning tannarxi va ekspluatatsion xarajatlarini kamaytirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Shu munosabat bilan, quyosh kollektorlarini shikastlanishdan himoya qilish uchun o'z-o'zidan drenajlanadigan gelioqurilmalarning energiya samaradorligi va ishonchliligini ularning tarkibiy qismlari, jumladan, quyosh kollektorining konstruksiyasini takomillashtirish orqali oshirish dolzarb ilmiy-texnik muammo hisoblanadi.

Dunyoning ilg'or ilmiy markazlarida o'z-o'zidan drenajlanadigan gelioqurilmalar va ularning tarkibiy qismlari konstruksiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu ishlar quyosh kollektorlarini qishda issiqlik tashuvchining muzlashidan yoki yozda qaynab ketishidan himoya qilishga qaratilgan. Himoyalash jarayoni quyosh radiatsiyasining mavjudligi va gelioqurilmadan issiqlik energiyasining olinishiga qarab, tizimni suv bilan davriy ravishda to'ldirish va bo'shatish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli, o'z-o'zidan drenajlanadigan gelioqurilmalarning energiya samaradorligi va ishonchliligini oshirish maqsadida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar quyosh kollektorlarini kundalik foydalanishda suv bilan to'ldirish, issiqlik ishlab chiqarish va drenajlash jarayonlarini samarali amalga oshirishga qaratilgan. Ushbu yo'nalishda o'z-o'zidan drenajlanadigan gelioqurilmalarning energiya samaradorligi va ishonchliligini oshirish dolzarb masala hisoblanadi. Bu maqsadga erishish uchun qurilmaning tarkibiy qismlari, jumladan quyosh kollektorining konstruksiyasini takomillashtirish zarur. Bunday takomillashtirilgan qurilmalar quyosh radiatsiyasining o'zgaruvchan intensivligi sharoitida energiya va massa oqimlarining o'zgarishlariga tezkor javob bera olishi lozim.

O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish hajmini ko'paytirish va ularning qo'llanilish samaradorligini oshirishga imkon beruvchi yangi yuqori samarali texnologiyalarni yaratish maqsadida tadqiqotlarni o'tkazish bo'yicha keng qamrovli va xilma-xil chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirish, shuningdek, ularni amalda joriy etish ko'zda tutilgan. 2022-2026 yillarga

¹Weiss W., Spörk – Dür M. "Solar Heat Worldwide. Global Market Development and Trends in 2023. Detailed Market Figures 2022. 2024 edition". Available: <https://www.iea-shc.org/Data/Sites/1/publications/Solar-Heat-Worldwide-2024.pdf>.

mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish»² bo'yicha vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun muqobil energiya manbalaridan foydalanib, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini qurish, mavjudlarini qayta qurish va modernizatsiya qilish ko'zda tutilgan. Xususan, quyosh kollektorlarini shikastlanishdan himoya qiluvchi energiya tejankor va ishonchli o'z-o'zidan drenajlanadigan geliyqurilmalarni ishlab chiqish orqali bu maqsadlarga erishish mumkin. Shu sababli, mazkur dolzarb masalalarni hal etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish juda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur dissertatsiya ilmiy-amaliy tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida, shuningdek, 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-sonli "2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida, 2020-yil 10 iyuldagi PQ-4779-sonli "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi va 2019-yil 22-avgustdagi PQ-4422-son "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida batafsil qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishning uzoq muddatli maqsadli parametrlarini belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada hissa qo'shishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirildi: IV. "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish usullarini ishlab chiqish, nanotexnologiya, fotonika va boshqa ilg'or texnologiyalar asosida texnologiya va qurilmalar yaratish".

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunga qadar o'z-o'zini drenaj qiladigan geliyqurilmalarining gidrodinamik ish rejimlarini ularning samaradorligini oshirish maqsadida takomillashtirish, shuningdek, suyuqlikli quyosh kollektorlarini qishda muzlashdan va yozda suvni qaynashidan himoya qilish uchun o'z-o'zini drenaj qiladigan quyosh qurilmalarini takomillashtirish muammosi, Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy laboratoriyasida (NPEL, AQSH), Kassel universiteti issiqlik energiyasi texnologiyalari institutida (Uni Kassel, Germaniya) va boshqa ko'plab ilmiy markazlarda o'rganilgan va hal qilinmoqda. Hozirgi vaqtda Five Star (Xitoy Xalq Respublikasi), Viessmann (Germaniya) va GREEN one TEC (Avstriya) kompaniyalarida yangi zamonaviy texnologiyalar

²Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони.

hisobiga issiqlik samaradorligini oshirish uchun o'z-o'zini drenaj qiladigan quyosh qurilmalarining gidrodinamik ish rejimlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Qo'shni mamlakatlarda ham bir qator akademik, ilmiy-tadqiqot va loyiha institutlarida, shuningdek, ishlab chiqarish tashkilotlarida quyosh kollektorlarini qishda muzlashdan va yozda issiqlik tashuvchining qaynashidan himoya qilish uchun o'z – o'zini drenaj qiladigan gelioqurilmalarni ishlab chiqish va joriy etish bilan shug'ullanilmoqda. Ular orasida Rossiya Fanlar akademiyasining Birlashgan Yuqori haroratlar instituti, Milliy tadqiqot universiteti "MTI" va G.M. Krjijanovski nomidagi Energetika instituti (ENIN, Rossiya Federatsiyasi), Kiev milliy qurilish va arxitektura universiteti va Ukraina qurilish qurilishi bo'yicha mintaqaviy tadqiqot va loyihalash instituti (Ukraina), Tbilisi zonali eksperimental loyihalash ilmiy-tadqiqot instituti (Gruziya) va boshqalar. Quyosh issiqlik ta'minoti qurilmalarini yaratish va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar B.V. Tarnizhevskiy, O.S. Popel, V.I. Vissarionov B.I. Qazanjan va V.A. Butuzovlar (Rossiya Federatsiyasi), M.D.Rabinovich, A.R.Fert va N.V. Xarchenkolar (Ukraina), N.V. Meladze (Gruziya), R.B. Bayramov va A.D. Ushakovalar (Turkmaniston Respublikasi), A.I. Ismanjanov (Qirg'iziston Respublikasi), R.A. Zohidov, R.R. Avezov va Yu.K. Rashidovlar (O'zbekiston Respublikasi) rahbarligida bajarilgan.

Bajarilgan ishlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, quyosh kollektorlarini qishda muzlashdan va yozda issiqlik tashuvchining qaynashidan himoya qilish uchun o'z – o'zini drenaj qiladigan gelioqurilmalarini yaratishda hali ham an'anaviy yondashuvi qo'llaniladi, bu esa muvozanatsiz jarayonlar va gidrodinamik ta'sirlar fizikaviy hodisalarni hisobga olmasdan soddalashtirilgan tavsifni o'z ichiga oladi. O'z – o'zini drenaj qiladigan gelioqurilmalarining samaradorligini oshirish uchun ma'lum sharoitlarda tizimning xatti-harakatlariga kerakli ta'sir ko'rsatadigan, quyosh issiqlik ta'minoti tizimining belgilangan gidrodinamik ish rejimlarining avtomatik saqlanishini yoki ularning boshqa zarur holatga o'tishini avtomatlashtirish vositalaridan foydalanmasdan turub ta'minlaydigan faol elementlarning gidrodinamik xususiyatlarining ta'sirini hisobga olish masalalariga etarlicha e'tibor berilmagan. Ushbu tadqiqotlarda o'z – o'zini drenaj qiladigan gelioqurilmalarda gidrodinamik jarayonlardan samarali foydalanish va o'z-o'zini tartibga soluvchi elementlarni yaratish asosida samaradorlik va ishonchliligi yuqori bo'lgan oddiy o'z – o'zini drenaj qiladigan gelioqurilmalarni ishlab chiqishga qaratilgan vazifalar deyarli hal qilinmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent arxitektura-qurilish universitetining "Issiqlik ta'minoti tizimlarida quyosh energiyasidan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llarini ilmiy asoslash va izlash" loyihasi doirasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasini amalga oshirishga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi quyosh kollektorlarida issiqlik tashuvchini bir marta past oqim bilan isitish, shuningdek, uning tarkibiy qismlarini, jumladan quyosh kollektori tuzilishini takomillashtirish orqali, o'z-o'zini drenaj qiladigan

gelioqurilmaning energiya samaradorligi va ishonchliligini oshirish hamda investitsiya va foydalanish xarajatlarini kamaytirishdan iborat.

Tadqiqot vasifalari:

quyosh kollektorlarida issiqlik tashuvchini bir marta past oqim bilan isitadigan o'z-o'zini drenaj qiladigan gelioqurilmalar jihozlarining xususiyatlariga va sxematik yechimlariga qo'yiladigan asosiy talablarni ishlab chiqish;

faol elementli o'z-o'zini drenaj qiladigan gelioqurilmada issiqlik tashuvchini bir marta past oqim bilan isitishda quyosh radiatsiyasi intensivligi o'zgarishining quyosh kollektorlari va drenaj bakining o'zaro joylashuvi geometrik belgilarining nisbiy farqi qiymatiga ta'sirini baholash;

drenaj bakidagi suyuqlik sathi va napor o'zgaruvchan bo'lganda o'z-o'zini drenaj qiladigan gelioqurilmada drenajlash va quyosh kollektorlarini issiqlik tashuvchi bilan to'ldirish vaqtini hisoblash uslubini ishlab chiqish;

konussimon suv taqsimlagichning o'zgarimas kesimli quyosh kollektori kanallari bo'ylab suvni bir tekis taqsimlashini tadqiq qilish;

doimiy kesimli suv qabul qilgich yordamida quyosh kollektori kanallaridan suvni bir tekis olishni tadqiq qilish;

quyosh kollektorining doimiy kesimli konusli suv taqsimlagichi va suv qabul qilgichini hisoblash metodikasini ishlab chiqish;

o'z-o'zini drenaj qiladigan gelioqurilma uchun quyosh kollektorining yangi konstruksiyasini qiyosiy sinovdan o'tkazish uchun stand ishlab chiqish va tayyorlash;

issiqlik tashuvchining solishtirma sarfi kam, investitsiya va ekspluatatsiya xarajatlari kamaytirilgan, shu jumladan quyosh kollektorining konstruksiyasi o'z-o'zini drenaj qiladigan gelioqurilmalarni tadqiq qilish bo'yicha olingan ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish.

Tadqiqot ob'ekti sifatida quyosh kollektorlarida issiqlik tashuvchini bir marta past oqim bilan isitadigan o'z-o'zini drenaj qiladigan gelioqurilmalar olingan.

Tadqiqotning predmetini quyosh kollektorlarida ikki fazali suv-havo oqimi sharoitida faol elementli o'z-o'zini drenaj qiladigan gelioqurilmalarida bir marta past oqim bilan isitishda sodir bo'ladigan gidrodinamik jarayonlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida gidrodinamika, fizik-matematik modellashtirish va eksperiment, o'xshashlik nazariyasi va o'lcham birliklarni taxlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

quyosh radiatsiyasining o'zgaruvchan intensivligida gelioqurilmaning investitsiya va ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish imkonini beradigan quyosh kollektorlarida issiqlik tashuvchini bir marta past oqim bilan isitadigan o'z-o'zini drenaj qiladigan gelioqurilmalarning ikki fazali suv-havo oqimi sharoitlarida ishlashi uchun asbob-uskunalarining xususiyatlari va sxematik yechimlariga qo'yiladigan asosiy talablar va drenajlash sxemasining takomillashtirilgan gidravlik konfiguratsiyasi ishlab chiqgan;

quyosh kollektorlari va drenaj bakining o'zaro joylashuvi geometrik belgilarining nisbiy farqi qiymatiga, past sarfli bir martalik isitishda faol elementli

o'z-o'zini drenaj qiladigan gelioqurilmada quyosh radiatsiyasi intensivligining o'zgarish ta'sirini baholash uchun bog'liqlik aniqlangan;

o'z-o'zini drenaj qiladigan gelioqurilmada drenaj bakidagi suyuqlik sathi va nabori o'zgaruvchan bo'lgan sharoitda quyosh kollektorlarini drenajlash va issiqlik tashuvchi bilan to'ldirish vaqtini hisoblash uslubi ishlab chiqilgan;

quyosh kollektorining o'zgarimas kesimli kanallari bo'ylab suvni bir tekis taqsimlash uchun konussimon suv taqsimlagichning matematik modeli va o'z-o'zini drenaj qiladigan gelioqurilmaning yangi quyosh kollektori konstruksiyasini qiyosiy sinovdan o'tkazish uchun tajriba stendi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

quyosh kollektorlarining samaradorligini 20 foizga oshirish va elektr tarmog'idan elektr energiyasi iste'molini 9-11 foizga kamaytirishni ta'minlaydigan quyosh radiatsiyasining o'zgaruvchan intensivligida quyosh kollektorlarida issiqlik tashuvchini bir marta past oqim bilan isitadigan o'z-o'zini drenaj qiladigan gelioqurilmalarning ikki fazali suv-havo oqimi sharoitlarida ishlashi uchun asbob-uskunalarining xususiyatlari va sxematik yechimlariga qo'yiladigan asosiy talablar va drenajlash sxemasining takomillashtirilgan gidravlik konfiguratsiyasi ishlab chiqilgan;

drenaj bakidagi suyuqlik sathi va nabori o'zgaruvchan bo'lganda o'z-o'zini drenaj qiladigan gelioqurilmada quyosh kollektorlarini drenajlash va issiqlik tashuvchi bilan to'ldirish vaqtini hisoblashning muhandislik usuli ishlab chiqilgan;

ikki fazali suv-havo oqimi sharoitlari va quyosh radiatsiyasining o'zgaruvchan intensivligida drenajlash sxemasining takomillashtirilgan gidravlik konfiguratsiyasi uchun quyosh kollektorlarida issiqlik tashuvchini bir marta isitish bilan o'z-o'zini drenaj qiladigan gelioqurilmaning yangi quyosh kollektori konstruksiyasini qiyosiy sinovdan o'tkazish uchun eksperimental stend ishlab chiqilgan va tayyorlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi gidrodinamik modellashtirish va quyosh issiqlik qurilmalari parametrlarini optimallashtirishning sinovdan o'tgan zamonaviy usullaridan foydalanish, hisoblangan va eksperimental natijalarning dastlabki ma'lumotlarning bir xil qiymatlari bilan yaqin mos kelishi, tadqiqot natijalarining mazkur sohada ilgari ma'lum bo'lgan yechimlar bilan taqqoslanishi va ularning tadqiqotda taklif qilingan umumiy ifodalar va yechimlardan xususiy yechim sifatida kelib chiqishi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati quyidagilarni o'z ichiga oladi: ikki fazali suv-havo oqimi sharoitida quyosh kollektorlarida issiqlik tashuvchini bir marta past sarfli isitish bilan o'z-o'zidan drenajlanuvchi gelioqurilmalarning sxematik yechimlari va uskunalarining xususiyatlariga qo'yiladigan asosiy talablarni ishlab chiqish orqali ularning energiya samaradorligini oshirish usulini aniqlash va takomillashtirish; quyosh radiatsiyasining o'zgaruvchan intensivligi uchun drenajlash sxemasining gidravlik konfiguratsiyasini takomillashtirish, bu esa gelioqurilmaning investitsiya va ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytiradi; quyosh issiqlik ta'minoti tizimlarida nostatsionar jarayonlardan samarali foydalanishni ta'minlaydigan o'z-o'zini tartibga soluvchi elementlarni qo'llash orqali o'z-o'zidan

drenajlanuvchi gelioqurilmalarning ishonchliligini oshirish, bu qishda quyosh kollektorlarida issiqlik tashuvchining muzlashidan va yozda uning turg'un rejimda qaynashidan himoya qiladi; quyosh kollektorlarini drenajlash vaqtini hisoblash va issiqlik tashuvchisi bilan to'ldirish metodikasini ishlab chiqish bilan izoxlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'z-o'zidan drenajlanadigan gelioqurilmalarda issiqlik tashuvchini bir marta isitish bilan ishlash uchun yaxshilangan gidrodinamik xususiyatlarga ega quyosh kollektorining takomillashtirilgan konstruksiyalari, shuningdek, drenaj bakidagi suyuqlik sathi va o'zgaruvchan bosimda o'z-o'zidan drenajlanadigan gelioqurilmada quyosh kollektorlarini drenajlash va issiqlik tashuvchi bilan to'ldirish vaqtini hisoblashning muhandislik usuli ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi. Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari geliotizimlarning energiya samaradorligi, tejamkorligi va ishonchliligini sezilarli darajada oshirishni ta'minlaydigan, uning alohida elementlari va qismlarining material sarfi va narxini kamaytiradigan, ulardan foydalanishni an'anaviy yechimlarga nisbatan sezilarli darajada soddalashtiradigan eng oddiy o'z-o'zini boshqaruvchi gelioqurilmalarning konstruksiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Quyosh kollektorlarini buzilishdan himoyalash uchun energiya tejamkor va ishonchli o'zini-o'zi drenaj qiladigan gelioqurilmalar bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

quyosh kollektorlarida issiqlik tashuvchini bir marta past oqim bilan isitish va quyosh kollektori tuzilishini takomillashtirish orqali o'z-o'zini drenaj qiladigan gelioqurilmaning energiya samaradorligi va ishonchliligini oshirish hamda investitsiya va foydalanish xarajatlarini kamaytirish usuli Toshkent viloyati Shodlik MFY, 59-uyda "Gold-Arch Konstruktion" xususiy korxonasida amaliyotga tadbiiq etilgan (O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasi 11.18.2022 y. №05/15-2819- sonli ma'lumotnomasi). Natijada quyosh kollektorlarining samaradorligini 20% gacha oshirishga, tarmoqdan elektr energiya iste'mol qilishni 9-11% ga tejalishiga va yillik iqtisodiy samarani 31407063 so'mni tashkil etishiga erishildi (Toshkent viloyati Shodlik MFY, 59-uyda "Gold-Arch Konstruktion" xususiy korxonasinig dalolatnomasi 05.08.2022 y.);

quyosh kollektorlarida issiqlik tashuvchini bir marta past oqim bilan isitish va quyosh kollektori tuzilishini takomillashtirish orqali o'z-o'zini drenaj qiladigan gelioqurilmaning energiya samaradorligi va ishonchliligini oshirish hamda investitsiya va foydalanish xarajatlarini kamaytirish usuli Toshkent viloyati Do'rmon, Qurama 4-tor berk ko'chasida, quyosh suv isitish qurilmalarida amaliyotga tadbiiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining 05.09.2022 y. Natijada quyosh kollektorlarining samaradorligi, tarmoqdan elektr energiya va tabiiy gaz iste'mol qilishni 20%ga kamaytirilishiga va yillik iqtisodiy samarani 39 366 894 so'mni tashkil etishiga erishildi ("Toshkent viloyati issiqlik manbai ishlab chiqarish boshqarmasi" dalolatnomasi 09.08.2021 y.).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari 8 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy va 10 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan hamda 1 ta DGU (DGU №12942) guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy qismi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotlarining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotlarning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotlarning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, shuningdek, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Quyosh kollektorlarini atrof-muhitning yuqori va past haroratlarida suvning qaynashi va muzlashi natijasida buzilishdan himoya qilish: jahon va mahalliy tajriba**" deb nomlangan **birinchi** bobida dunyoda suyuqlik quyosh kollektorlaridan foydalanish ko'lamini, ularning turlari, amaliy qo'llanilish tendensiyalari va ularni yil davomida qish va yoz mavsumlarida atrof-muhitning past va yuqori haroratlarida issiqlik tashuvchining muzlashi va qaynashidan himoya qilishning zamonaviy usullari tahlil qilingan. Shuningdek, jahon amaliyotida suyuqlikli quyosh kollektorlari (QK) ni himoya qilish uchun qo'llaniladigan o'z-o'zini drenaj qiladiigan quyosh qurilmalari (O'DQ) ning namunaviy sxemalarining gidravlik konfiguratsiyalari, faol elementlarni (FE) qo'llash asosida o'z-o'zini qrenaj qiladiigan quyosh qurilmalarining konstruksiyalari va ularning gidrodinamik ishlash rejimlarini takomillashtirish yo'llari, o'z-o'zini qrenaj qiladiigan quyosh qurilmalari va ularning torayuvchi qurilmalar ko'rinishidagi faol elementlarini hisoblash va loyihalashning mavjud usullari ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, faol elementli o'z-o'zini qrenaj qiladiigan qurilmalarni ishlab chiqish va tadqiq qilish bo'yicha vazifalar shakllantirilgan.

Suyuqlikli quyosh kollektorlarini issiqlik tashuvchining muzlashi va qaynashidan himoya qilishning jahon va mahalliy tajribasi zamonaviy holatini tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, konfuzor-diffuzor turidagi toraytiruvchi qurilmalar ko'rinishidagi faol elementlarga ega o'z-o'zidan drenajlanadigan quyosh qurilmalarining energiya samaradorligini yanada oshirish mumkin. Bunga ularning gidrodinamik xususiyatlarini yaxshilash orqali erishish mumkin. Ya'ni, ichki oqim aylanish yuzasini imkon qadar kichraytirish hamda ishqalanish va uyurma hosil bo'lishiga sarf bo'ladigan umumiy bosim yo'qotishlarini kamaytirish orqali amalga oshiriladi.

Ishchi gipoteza. O‘z-o‘zini qrenaj qiladiigan gelioqurilmalarning energiya tejankorligi va ishonchliligini yanada oshirish, shuningdek, ularning investitsiya va ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirishga ularda quyosh kollektorlarida issiqlik tashuvchini bir marta past xarajatli qizdirishni qo‘llash va uning elementlarini, shu jumladan quyosh kollektorining konstruksiyasini takomillashtirish hisobiga erishish mumkinligi **taxmin qilinmoqda.**

Muammoning holatini, dissertatsiya mavzusi bo'yicha adabiy va patent manbalarini tanqidiy tahlil qilish natijasida tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.


Dissertatsiyaning "**Quyosh radiatsiyasining o‘zgaruvchan intensivligida quyosh kollektorlarida issiqlik tashuvchini bir marta past oqim bilan isitadigan o‘z-o‘zini drenaj qiladigan gelioqurilmaning nazariy tadqiqoti**" deb nomlangan **ikkinchi bobida** quyosh kollektorlarida issiqlik tashuvchini bir marta past sarfli isitish bilan o‘z-o‘zini drenaj qiladigan gelioqurilmaning xususiyatlariga va sxematik yechimlariga qo‘yiladigan asosiy talablarni ishlab chiqish; gelioqurilmaning investitsiya va ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirishni ta'minlovchi, o‘zgaruvchan quyosh radiatsiyasi intensivligi uchun drenajlash sxemasining takomillashtirilgan gidravlik konfiguratsiyasini yaratish; quyosh radiatsiyasi intensivligining quyosh kollektorlari va drenaj bakining o‘zaro joylashuviga ta'sirini aniqlash; quyosh kollektorlarini drenajlash va ularni issiqlik tashuvchi bilan to'ldirish vaqtini hisoblash; konussimon suv taqsimlagich tomonidan quyosh kollektorlari kanallari bo'ylab suvni bir tekis taqsimlashning matematik modelini ishlab chiqish va yechish kabi tadqiqot natijalari keltirilgan.

Hozirgi vaqtda jahon amaliyotida keng qo‘llanilayotgan Drainback systems turidagi O`DQ (1-rasm, a), shuningdek, geliokonturda 40-50 l/(soat·m²) tartibida issiqlik tashuvchining doimiy va yuqori sarfi bilan ishlashga mo‘ljallangan Venturi quvurining shakliga ega bo‘lgan toraytiruvchi qurilma faol elementli (FE) modernizatsiya qilingan sxemasini (1-rasm, b) samaradorligi va ishonchliligini oshirish uchun QKda issiqlik tashuvchini o‘zgaruvchan past sarfli (7-14 l/ (soat·m²)) bir marta qizdirish bilan O`GQning yangi takomillashtirilgan gidravlik konfiguratsiyasi ishlab chiqildi (1-rasm, v).

Buning uchun O`GQ geliokonturiga 1-nasos o‘rnatilgan bo‘lib, uning 2-elektrovigateli tushayotgan quyosh nurlanishi kuchiga mutanosib ravishda elektr toki ishlab chiqaradigan 3-fotoelektrik o‘zgartirgichga ulangan. Bu esa QK orqali issiqlik tashuvchining tegishli o‘zgaruvchan sarfini ta'minlaydi. Uni havo va suv hajmlariga ajratuvchi 5-membranali 4-drenaj baki, shuningdek qo‘shimcha ravishda o‘rnatilgan 6-havo yig‘gich-separator, 7-teskari klapan va Venturi quvuri shakliga ega bo‘lgan 8-faol element (uning toraygan kesimi 4-drenaj baki bilan bog‘langan) O`GQ ning issiqlik tashuvchining o‘zgaruvchan past sarflarida barqaror ishlashini ta'minlaydi.

QKga tushayotgan quyosh radiatsiyasi intensivligi E ning maksimal E^{max} dan (1-rasmning v bandiga qarang) uning hisobiy qiymati E^* gacha o‘zgarishining, QK va drenaj bakining FE li O`GQ dagi o‘zaro joylashuvini belgilovchi H masofaning maksimal H^{max} dan hisoblangan H^* gacha o‘zgarish balandligiga ta'sirini aniqlash maqsadida, issiqlik tashuvchining turli xil sarflari - maksimal G^{max} dan hisoblangan

G^* gacha bo'lgan miqdorlarda geliokonturning o'zgaruvchan ish rejimi ko'rib chiqildi.



1-rasm. Drainback systems turidagi o'z-o'zini drenaj qiladigan geliokurilma (a) va uning Venturi quvuri shakliga ega bo'lgan toraytiruvchi o'z-o'zini tartibga soluvchi faol element (FE) dan foydalanishga asoslangan takomillashtirilga va gidravlik konfiguratsiyasi (b).

QKga tushayotgan quyosh radiatsiyasi intensivligi E ning maksimal E^{\max} dan (1-rasm, v ga qarang) uning hisobiy qiymati E^* gacha o'zgarishining H masofaning maksimal H^{\max} dan hisobiy H^* gacha o'zgarish balandligiga ta'sirini aniqlash uchun QK va drenaj bakining FE bilan O`GQ da o'zaro joylashuvini belgilovchi issiqlik tashuvchining turli G sarflarida maksimal G^{\max} dan hisobiy G^* gacha bo'lgan geliokonturning o'zgaruvchan ish rejimi ko'rib chiqilgan.

Shu maqsadda quyidagi tenglamalar tuzildi:

- Venturi quvuri ko'rinishidagi FE bilan o'z-o'zidan drenajlanadigan geliokonturda nasos tomonidan ishlab chiqariladigan Δp_{nas} bosim farqi uchun

$$\Delta p_{nas} = \rho g H - \left(\frac{\alpha_1}{F_1^2} - \frac{\alpha_2}{F_2^2} \right) \frac{G^2}{2\rho} + S_2 G^2 \quad (1)$$

- quyosh kollektorining oniy issiqlik unumdorligi Q uchun

$$Q = \eta E = c_p G (t_2 - t_1), \quad (2)$$

Bu yerda H - geliokurilmaning balandligi, m; α_1, α_2 - Venturi quvurining tor F_1 va keng F_2 kesimlaridagi Koriolis ko'effitsiyentlari; ρ - zichlik, kg/m^3 ; S - geliokontur tarmog'ining qarshilik xarakteristikasi, $\text{Pa}/(\text{kg/s})^2$; g - erkin tushish tezlanishi, m/s^2 ; c_p - issiqlik sig'imi, $\text{J}/(\text{kg}\cdot^\circ\text{C})$; t_1, t_2 - QKga kirish va chiqishdagi suvning harorati, $^\circ\text{C}$.

(2) tenglamani G sarfiga nisbatan yechib, bu qiymatni (1) tenglamaga qo'yib, uni O`GQ uchun E^*, H^*, G^* hisobiy parametrlari va uning joriy E, H, G qiymatlari bilan qayta yozib chiqib, so'ngra oxirgi tenglamadan oldingi tenglamani ayirib, quyidagi belgilashni kiritib:


$$\bar{H} = \frac{H}{H^*}, \quad (3)$$

topamiz

$$\bar{H} = \left(\frac{\eta E}{\eta^* E^*} \right)^2 \frac{(t_2^* - t_1^*)^2}{(t_2 - t_1)^2}. \quad (4)$$

Olingan (4) bog'liqlik past sarfli bir martalik issiqlik tashuvchini qizdirishda AEli O`GQda quyosh radiatsiyasi intensivligi E o'zgarishining QK va drenaj bakining o'zaro joylashuvi geometrik belgilarining nisbiy farqi \bar{H} qiymatiga ta'sirini baholash imkonini beradi.

O`GQdagi QKni drenajlash yoki issiqlik tashuvchi bilan to'ldirish vaqtini aniqlash uchun QK 1 va drenaj baki 2 dagi suyuqlik sathlari farqining o'zgaruvchan bosimi H_1 holatida 2-rasmda ko'rsatilgan hisoblash sxemasi ko'rib chiqilgan.



2-rasm. O`GQ hisoblash sxemasi: 1- QK; 2- drenaj baki; 3 - FE; 4-nasos

Agar h bosimdagi sarfiyotni Q bilan belgilasak, u holda dt vaqt mobaynida QKdan faol elementi 3 orqali 2 drenaj bakiga quyidagi miqdordagi issiqlik tashuvchi oqib o`tadi:

$$Qdt = \mu_c \omega \sqrt{2gh} dt, \quad (5)$$

bu yerda μ_c - tizimning sarf koeffitsiyenti.

Agar dt vaqt ichida QKda sath dz_1 qiymatga pasaysa va 2 drenaj bakida dz_2 qiymatga ko`tarilsa, u holda issiqlik tashuvchining hajmlari

$$-\Omega_1 dz_1 = \Omega_2 dz_2, \quad (6)$$

bosim esa quydagi kattalikka o`zgaradi

$$dh = dz_1 - dz_2. \quad (7)$$

(5) - (7) tenglamalardan kelib chiqadi

$$\mu_c \omega \sqrt{2gh} dt = -\Omega_1 dz_1, \quad (8)$$

va shunda

$$dt = -\frac{\Omega_1 dz_1}{\mu_c \omega \sqrt{2gh}}, \quad (9)$$

yoki

$$t = -\frac{\Omega_1}{\mu_c \omega \sqrt{2g}} \int \frac{dz_1}{\sqrt{h}}. \quad (10)$$

(6) va (7) tenglamalardan quyidagini topamiz:

$$dz_1 = \frac{\Omega_1}{\Omega_1 + \Omega_2} dh. \quad (11)$$

Ushbu dz_1 qiymatini (10) tenglamaga qo`yib, integrallashdan so`ng sathlar farqi H_1 dan H_2 gacha kamayadigan t vaqtni topamiz, ya`ni


$$t = \frac{\Omega_1 \Omega_2}{\Omega_1 + \Omega_2} \frac{1}{\mu_c \omega \sqrt{2g}} \int_{H_1}^{H_2} \frac{dh}{\sqrt{h}} = \frac{2\Omega_1 \Omega_2}{\Omega_1 + \Omega_2} \frac{\sqrt{H_1} - \sqrt{H_2}}{\mu_c \omega \sqrt{2g}}. \quad (12)$$

Issiqlik tashuvchi bir xil sathda o`rnatilish vaqti (12) tenglamaga $H_2 = 0$ qiymatini qo`yish orqali aniqlanadi:

$$t = \frac{2\Omega_1 \Omega_2}{\Omega_1 + \Omega_2} \frac{\sqrt{H_1}}{\mu_c \omega \sqrt{2g}}. \quad (13)$$

(13) tenglama sirkulyatsion nasos 4 ni ishga tushirishda QKni to`ldirish vaqtini aniqlash uchun ham o`rinlidir.

Gidravlik kanallar bo`ylab oqimning bir tekis taqsimlanishi bilan issiqlik tashuvchini bir marta isitish bilan kam sarfli QK konstruksiyasini ishlab chiqish uchun uzunligi l , boshida diametri d_h , oxirida d_o bo`lgan konusli gidravlik kollektor bilan suv tarqatish jarayoni ko`rib chiqilgan, uning bo`ylab bir qatorda bir xil diametrlil δ_{tr} , issiqlik tashuvchining sarfi G , boshida tezligi W_H va sarf koeffitsiyenti μ bo`lgan ko`tarish quvurlari tutami joylashgan (3-rasm).



3-rasm. Bir qatorli ko'taruvchi quvurlar tutami (a) va doimiy kenglikdagi shartli tirqish (b) bilan jihozlangan konussimon gidravlik kanal sxemasi

Oqimning taqsimlanish jarayoni quyidagi differensial tenglama orqali tavsiflanadi

$$\bar{G}_x'' \bar{G}_x' + \frac{\mu^2 \bar{f}^2}{\bar{F}_x^2} \bar{G}_x' \bar{G}_x' - \frac{\mu^2 \bar{f}^2}{\bar{F}_x^2} \left[\frac{\bar{F}_x'}{\bar{F}_x} + \frac{\lambda \bar{l}}{2d_x} \right] \bar{G}_x^2 = 0, \quad (14)$$

Bu yerda $\bar{f} = \frac{f}{F_n} = \frac{\delta}{F_n \cos \theta}$; $\bar{l} = \frac{l}{d}$; $\bar{d}_0 = \frac{d_0}{d_n}$; $\bar{d}_x = \frac{d_x}{d_n} = \frac{d_0 + 2x \operatorname{tg} \theta}{d_n} = \frac{d_0 + 2x \frac{d_n - d_0}{2l}}{d_n} = \bar{d}_0 + (1 - \bar{d}_0) \bar{x}$;

$$\bar{F}_x = \bar{d}_x^2 = [\bar{d}_0 + (1 - \bar{d}_0) \bar{x}]^2; \quad (16)$$

$$\bar{F}_x' = 2 [\bar{d}_0 + (1 - \bar{d}_0) \bar{x}] (1 - \bar{d}_0); \quad (17)$$

Chegaraviy shartlar

$$\left. \begin{array}{l} \bar{x} = 0 \\ \bar{x} = 1 \end{array} \right\} \begin{array}{l} \bar{G}_0 = 0 \\ \bar{G}_n = 1 \end{array} \quad (18)$$

$\mu \bar{f}$ kattaligi shartli tirqish parametri deb, $\lambda \bar{l}$ kattaligi esa kanal parametri deb ataladi. Notekis suv taqsimotining tekis taqsimotdan og'ishi r_x quyidagicha aniqlanadi:


$$r_x = \bar{v}_x - 1. \quad (19)$$

r_x ni $\mu \bar{f}$, $\lambda \bar{l}$, \bar{d}_0 va \bar{x} kattaliklariga bog'liqligini aniqlaymiz.

(14) chiziqli bo'lmagan differensial tenglamani (18) chegaraviy shartlar bilan analitik yechish juda murakkabdir. Shu sababli, uni integrallash sonli usul yordamida amalga oshirildi. Hisob-kitoblar natijasida $\mu \bar{f}$, $\lambda \bar{l}$ va \bar{d}_0 kattaliklarining turli qiymatlarida r_x ning \bar{x} ga bog'liq ravishda o'zgarishini ko'rsatuvchi jadvallar olindi.

